

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.2./EJU06154>
UDC: 343.2(045)(575.1)

O'ZBEKISTONDA AYOLLAR JINOYATCHILIGINING HOZIRGI HOLATI

Xodjayev Shohrux Muzaffarovich,

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi

Qonunchilik va huquqiy

siyosat instituti katta ilmiy xodimi

ORCID: 0009-0001-3211-2053

e-mail: zoomjph@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif O'zbekiston Respublikasidagi zamonaviy ayollar jinoyatchiligining kriminologik tavsifi, uning oldini olish, profilaktika o'tkazish va unga qarshi kurashish chora-tadbirlari tizimini keyinchalik ishlab chiqish uchun asos sifatida keltirgan. Maqolada, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning tasnifi o'rganilgan. So'nggi o'n yil ichida ayollar jinoyatchiligi darajasining miqdoriy ko'rsatkichlari uning tendensiyalari va dinamikasini baholashga imkon beradi. Maqolada ayollar jinoyatchiligining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, g'arazli va zo'ravonlik orqali sodir etilgan jinoyatlar tarkibi tahlil qilindi, ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar turlari sanab o'tildi, ayollarning jinoiy xatti-harakatlarining salbiy tendensiyalari ko'rsatildi. Muallifning ta'kidlashicha, ayollar va erkaklar jinoyatchiligining sifat xususiyatlari yaqinlashishi, ayollar jinoyatchiligining shafqatsizligi kuchayishi, ayollar jinoiy muhitining professionalligi va tashkilotchiligi oshishi, retsidivlarning ko'payishi, jinoyat subyektlarining yosharishi ushbu hodisaning ijtimoiy xavfliligi ortganligidan dalolat beradi. Mahkum ayollarni jazoni o'tash davriga moslashtirish va qayta ijtimoiylashtirish bo'yicha umumiy chora-tadbirlar ishlab chiqish, mahkum ayollarning qonunga bo'ysunish xulq-ayvorini ta'minlash maqsadida ularni rag'batlantirish tizimini takomillashtirishga oid zarur xulosalar olindi.

Kalit so'zlar: ayollar jinoyati, g'arazli jinoyatlar, zo'ravonlik jinoyatlari, antisotsial xatti-harakatlar, kriminogen faoliyat.

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ЖЕНСКОЙ ПРЕСТУПНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Ходжаев Шохрух Музаффарович,

старший научный сотрудник

Института законодательной

и правовой политики

при Президенте Республики Узбекистан

Аннотация. В настоящей статье авторы дают криминологическую характеристику современной женской преступности в Республике Узбекистан как основы для последующей выработки системы мер по ее профилактике, предупреждению и противодействию. В статье изучаются классификация в Республике Узбекистан преступлений, совершаемых женщинами. Приводятся количественные показатели уровня женской преступности за последнее десятилетие, позволяющие оценить ее тенденции и динамику. Исходя из специфических особенностей женской преступности, проанализирована ее структура, в которой выделены корыстные и насильственные преступления, названы виды преступлений, преимущественно

совершаемые женщинами, подчеркнуты негативные тенденции женского криминального поведения. Авторы доказывают, что сближение качественных характеристик женской и мужской преступности, усиление жестокости женской преступности, укрепление профессионализма и организованности женской криминальной среды, рост рецидивов, омоложение субъектов преступлений свидетельствуют о возрастании общественной опасности данного явления. Автор приходит к выводу о разработке общих мер по адаптации и ресоциализации осужденных женщин в период отбывания наказания, усовершенствовании системы стимулов и поощрений для осужденных женщин для того, чтобы обеспечивать их правопослушное поведение и полезную деятельность.

Ключевые слова: женская преступность, корыстные преступления, насильственные преступления, антиобщественное поведение, криминогенная активность.

CURRENT STATUS OF FEMALE CRIME IN UZBEKISTAN

Xodjayev Shoxrux Muzaffarovich,

Leading Researcher, Institute of Legislative and
Legal Policy under the President of the Republic of Uzbekistan

Abstract. In this article, the author gives a criminological description of modern female crime in the Republic of Uzbekistan as the basis for the subsequent development of a system of measures for its prevention and counteraction. The article studies the classification of crimes committed by women in the Republic of Uzbekistan. Quantitative indicators of the level of female crime over the past decade are given, allowing us to assess its trends and dynamics. Based on the specific features of female crime, its structure is analyzed, in which mercenary and violent crimes are singled out, the types of crimes predominantly committed by women are named, and negative trends in female criminal behavior are emphasized. The author argues that the convergence of the qualitative characteristics of female and male crime, the increase in the cruelty of the female crime, the strengthening of the professionalism and organization of the female criminal environment, the growth of recidivism, the rejuvenation of the subjects of crime indicate an increase in the social danger of this phenomenon. The author concludes that the development of general measures for the adaptation and resocialization of convicted women during the period of serving their sentence, and the improvement of the system of incentives and rewards for convicted women to ensure their law-abiding behavior and useful activities.

Keywords: female crime, acquisitive crimes, violent crimes, antisocial behavior, criminal activity.

Kirish

Milliy kriminologiyaning mustaqil tadqiqot obyekti sifatida ayollar jinoyatchiligi masalasi so'nggi yigirma yillikdagina shakllana boshladi. Bu holat, bizningcha, kriminologik ma'lumotlarni to'plash va boyitish, tadqiqot ko'lamini kengaytirish istagi bilan bog'liq. Ayollar jinoyatchiligi muammosining paydo bo'lishi nafaqat kriminologiya-ning rivojlanish mantig'i, balki amaliyot ehtiyojlari, birinchi navbatda, ayollarning g'ayriijtimoiy harakatlarining ko'lamini va xavfli oqibatlari bilan ham belgilanadi.

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ayollarning jinoiy xulq-atvori erkaklarning jinoiy xulq-atvoridan jinoyatni sodir etish usullari va vositalari, ularning ko'lamini, jinoiy xatti-harakatlarning xarakteri, jinoiy tajovuz qurbonini tanlash bilan farq qiladi. Albatta, bugungi kunda hayotning ijtimoiy shart-sharoitlari va undagi ayollarning roli o'zgarmoqda. G'ayriijtimoiy xulq-atvor tabiati, jinoyatlarning sodir etish usullari ham o'zgarib bormoqda.

Hozirgi kunda jamiyatimiz ayollar jinoyatchiligiga to'g'ri baho berish, jinoyat-

chi shaxsini tushunish va uning jinoiy xatti-harakati sabablarini tushuntirish va ularga baho berishda ortda qolmoqda. Gap shundaki, jinoyatlarning asosiy qismi erkaklar tomonidan sodir etiladi, ammo bu ayollar jinoyatchiligi mavjud emas, degan emas.

Material va metodlar

Tadqiqot ishida qiyosiy-huquqiy va statistik tahlil metodidan foydalanildi. Ishda umimlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari ham qo'llanildi.

Tadqiqot natijalari

Bugungi kunda ayollar jinoyatchiligi alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri ayollar jinoyatchiligining yanada ortib borishidir. Fikrimizni statistik ma'lumotlar orqali asoslaydigan bo'lsak, O'zbekistonda jinoyat sodir etish ishtirokchilari orasida ayollar jinoyatlarining ulushi 70–80-yillarda 5-6 foiz, 90-yillarda 10 foizgacha yetgan bo'lsa, so'nggi o'n yillikning turli yillarida bu ko'rsatkich 45,5 foizga (2012-yil) yetdi. Oliy sud tomonidan taqdim etilgan statistik ma'lumotlarga asosan, 2020-yilda sudlangan ayollar soni 3 027 nafar, 2021-yilda 5 040 nafar, 2022-yilda esa 6 497 nafarni tashkil etmoqda. Mazkur statistik ma'lumotlar ham yurtimizda ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar sonining oshib borishini ko'rsatmoqda.

Ayolning jinoyat sodir etishi, ayniqsa, zo'ravonlik natijasida jinoyatga qo'l urishi har doim favqulodda hodisa bo'lib, uning atrofidagilar tomonidan ayol erkakka qaraganda o'zining g'ayrioddiy xatti-harakatlari uchun ko'proq va qattiqroq qoralanadi. Tarixan shu narsa ayon bo'ladiki, ayollar jinoyatchiligida qasd bilan sodir etilgan jinoyatlar ustunlik qiladi. So'nggi besh yilda xotin-qizlar tomonidan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish tartibini buzish holatlari biroz ko'paygani buning dalilidir.

Biroq olingan ma'lumotlar haqiqiy vaziyatni aks ettirmaydi, chunki bu jinoyatlarining latentligi juda yuqori. Ko'pincha oz

miqdordagi mablag'ni o'zlashtirib, jinoyat ustida qo'lga olingan ayollar jazolanmaydi. Ular yuzasidan materiallar tegishli choralar ko'rish uchun tashkilotlarga yuboriladi. Bunda ularning ko'pchiligining voyaga yetmagan bolalari, ko'pincha murakkab oilaviy sharoiti borligi inobatga olinib, shunday qarorga kelinadi.

Biroq ularga nisbatan qilingan rahmshafqatli qarorlar har doim ham o'zini oqlamaydi, chunki qilmishidan pushaymon bo'lish, tavba qilish faqat jinoyat uchun jazolani shi kerak bo'lgan taqdirdagina keladi. Bunday "rahmshafqat" axloqiy va psixologik oqibatlariga olib keladi, ayniqsa, zamonaviy sharoitlarda ayollarning xatti-harakatlariga salbiy ta'sir qiladi. Uning ayol ekani, oilasi, farzandlari uchun jinoyatga qo'l urayotgani go'yo boshqalarning ko'z o'ngida o'zini oqlayotgandek, ularni ham shunga o'xshash ishlarga undaydi.

Ayollar jinoyatchiligi muammolarini o'rganishda har doim erkaklar jinoyatchiligidan farq qiluvchi miqdoriy va sifat xususiyatlari hamda uning o'ziga xosligi ta'kidlangan.

Jinoyatlar ulushi tarkibini hisobga olgan holda, shuni aytish kerakki, 2022-yilda mamlakatimizda ayollar jinoyatchiligi umumiy jinoyatlar ulushi tarkibida 14,8 foizni tashkil etadi, ya'ni 2012-yil darajasida saqlanib qolgan, ayrim yillarda 17,0 % (2012), 17,2 % (2013)ga yetgan.

Biroq nisbatan past darajaga qaramay, ayollar jinoyatchiligi alohida e'tibor talab qiladi. Bu, xususan, ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar ancha murakkab tizim – umumiy jinoyat tarkibidagi quyi tizim bo'lib, o'zaro bog'langanligi va ma'lum darajada uning boshqa tarkibiy qismlariga ta'sir qilishi bilan bog'liq. Masalan, u voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki uning yosh avlod tarbiyasiga salbiy ta'siri erkaklar jinoyatchiligiga qaraganda ko'proq halokatli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bugungi kunda ayollar jinoyatchiligi muammosining dolzarb ekanligidan kelib

chiqib, ushbu masalani bir qator olimlar, jumladan, K.R. Abdurasulova [1, 23-b.], S. Xodjayeva [2, 20-21-b.], A.Y. Pulatova [3, 125-b.], G. Sharipova [4, 72-b.] va boshqalar [5, 150-b.] o'rgangan. Ularning ilmiy ishlarida ayollar jinoyatchiligining o'ziga xos xususiyatlari, erkaklar jinoyatidan farq qiluvchi sifat va miqdor belgilari ochib berilgan bo'lib, bu ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni barcha jinoyatlarning mustaqil tarkibiy elementi sifatida ajratib ko'rsatish imkonini beradi.

Shu bilan birga, so'nggi yillarda ayollar tomonidan tovlamachilik, qotillik, odam savdosi, talonchilik, tan jarohati yetkazish, bezorilik kabi zo'ravonlik jinoyatlari ham sodir etilmoqda. Aytish kerakki, ko'plab ayollar yuzaga kelayotgan nizolarni jismoniy kuch ishlatib hal qilishga moyil. Lekin ko'pincha ayollarning zo'ravonligi oilaviy nizolar va kelishmovchiliklar, jinsiy xiyonat asosida sodir etiladi. Odatda, ularning qurbonlari erlar, birga yashovchilar, qo'shnilar, qarindoshlar va tanishlar bo'ladi.

Olingan datslabki ilmiy natijalar shuni ko'rsatmoqdaki, ayollar iqtisodiy sohada ham jinoyat sodir etishadi. Bular, birinchi navbatda, firibgarlik, litsenziyasiz faoliyat bilan shug'ullanish, o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan bironing mulkini talon-toroj qilish, o'g'rilik, valyuta boyliklarini qonunga xilof ravishda egallash yoki sotish, bojxona qonunchiligini buzish, giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishi va hokazo. Bu, asosan, ushbu jinoyatlar sodir etilayotgan iqtisodiyot tarmoqlarida (savdo, umumiy ovqatlanish, moliya-kredit va boshqalar) mehnat qilayotganlar orasida ayollar salmog'ining yuqoriligi, shuningdek, kundalik hayotda rollarning an'anaviy taqsimlanishi bilan bog'liq.

Tadqiqot natijalari tahlili

O'zbekiston Respublikasida xotin-qizlar o'rtasidagi jinoyatchilikning asosiy ko'rsatkichlarini tahlil qilganda, jinsidan qat'i nazar, barcha jinoyatchilarga xos bo'lgan umumiy

xususiyatlar va o'ziga xos belgilar ham ko'zga tashlanadi [6, 551-b.].

Birinchi, ayollar tomonidan sodir etiladigan barcha jinoyatlarni ularning kasbiy faoliyati va oilaviy-maishiy munosabatlari bilan bog'liq holda ikki guruhga bo'lishimiz mumkin: birinchi guruh doirasida ko'proq qasddan sodir etiladigan jinoyatlar; ikkinchi guruhda esa zo'ravonlik natijasida sodir etiladigan jinoyatlar ro'y beradi. Birinchi guruh ikkinchisiga qaraganda ancha katta.

Ikkinchi, ayollar jinoyatchiligi darajasi erkaklarnikiga qaraganda ancha past, ammo keyingi yillarda uning umumiy jinoyatlar tarkibidagi ulushi ortib bormoqda. Yollanma jinoyatlar darajasi, asosan, ularning iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida bandligi, ular uchun ma'lum moddiy ne'matlardan foydalanish darajasi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, ular o'z oilasi va farzandlari uchun erkaklarnikiga qaraganda ko'proq bunday huquqbuzarliklarga yo'l qo'yishadi.

Uchinchi, hozirgi vaqtda ayollar o'rtasida zo'ravonlik jinoyatlarining biroz ko'payishi, ularning xatti-harakatlarida tajovuzkorlik va shafqatsizlikning namoyon bo'lishi kuzatilmoqda. Ular an'anaviy "erkaklar" jinoyatlarini sodir eta boshladilar, masalan, talonchilik, firibgarlik va bosqinchilik kabi. Bu faktlar jamiyatni alohida tashvishga solishi kerak.

To'rtinchi, ayollar jinoyatchiligi ular sodir etayotgan jinoyatlarning ko'pligi tufayli uning tuzilishining o'ziga xosligi, jamiyatga ta'siri, axloqiy-psixologik muhitining mustaqil shaklidir.

Ayollar jinoyatining ijtimoiy xavfi ortishi shundan iboratki, ularning g'ayriijtimoiy, jinoyat xulq-atvori kundalik hayotga salbiy ta'sir ko'rsatadi, oila asoslarini buzadi va asosiy ijtimoiy institutlarni vayron qiladi.

Ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni o'rganishning murakkabligi ularning obyektiv elementlar va subyektiv elementlar asosida ajratilganligi bilan bog'liq,

ya'ni subyektning jinoyatchi shaxsi sifatidagi aloqasi va jinoyat sodir etish xususiyatlari aniqlanadi.

O'tkazilgan tadqiqotlar, afsuski, jinoyatchi ayol shaxsidagi o'zgarishlar, sodir bo'layotgan o'zgarishlarga ba'zi ijtimoiy omillarning ta'siri darajasi to'g'risida to'liq ma'lumot olishga imkon bermaydi. Shu bilan birga, mavjud empirik ma'lumotlar jinoyatchi ayolning shaxsiyati noyob degan xulosaga kelishimizga asos bo'ladi:

- ayol xulq-atvorini belgilaydigan va shakllantiradigan turmush sharoitlari uning shaxsiyatiga sezilarli darajada ta'sir qiladi, keyinchalik bu uning xatti-harakatlarining ijobiy va salbiy shakllarida amalga oshiriladi;

- jinoyatchi ayol shaxsini o'rganishda uning faoliyat sohalarining xususiyatlari, uning jamiyatda bajaradigan funksiyalarini ochib berish muhim ahamiyatga ega. Agar ayol o'zi uchun belgilangan rolni bajarmasa yoki bajara olmasa, bu, birinchi navbatda, uning mavqeyida namoyon bo'ladi. Chunki vazifalar va tegishli funksiyalardan bosqichma-bosqich ozod qilish shaxsiy mulklar hajmining mutanosib ravishda torayishiga olib kelib, shaxsiyat tuzilishining deformatsiyasiga ta'sir qiladi [7, 69-b.]. Shu bilan birga, masalan, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi shaxsini kechikib yoki rasmiy ravishda o'rganish o'ta noqulay oqibatlariga olib kelishi mumkin [8, 30-b.].

Jinoyatchi shaxsining ijtimoiy-demografik xususiyatlarida asosiy elementlardan biri – bu uning yoshi hisoblanadi. U odamlarning xulq-atvoriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, chunki u ko'p jihatdan muayyan shaxsning ehtiyojlari va qiziqishlari tizimini belgilaydi va "har bir rivojlanish bosqichida shaxs o'zining ijtimoiy mazmuni bilan bir xil emas" [9, 57-b.].

Mazkur muallifning fikrlariga qo'shilgan holda, shuni aytish mumkinki, jinoyatchi shaxsini aniqlashda shaxsning ijtimoiy-demografik xususiyati birlamchi ahamiyatga ega. Chunki shaxsning yashash

joyi kriminogen hudud bo'lishi, shu hududagi kriminogen muhit uning jinoyat sodir etishiga sabab bo'lishi mumkin. Mazkur holat, o'z navbatida, shaxsni aybdor deb topishda isbot qilinishi lozim. Jinoyat-protsessual kodeksining 82-moddasida ayblash va hukm qilish uchun asoslar keltirilgan bo'lib, mazkur normaga asosan, vakolatli organlar ayblanuvchi va sudlanuvchi shaxsini tavsiflovchi holatlarni aniqlashlari talab etiladi.

Bugungi kunda ayollar jinoyatchiligini aniqlash va ularning oldini olishdagi asosiy muammo ularning jinoyat sodir etganidan keyin tayinlangan jazoning ijro etish bosqichida yuzaga kelmoqda. Xususan, Jinoyat-protsessual kodeksining 533-moddasida hukmning ijrosini kechiktirish asoslari keltirilgan bo'lib, hukmni ijro etish paytigacha mahkuma homilador bo'lib qolsa – bir yildan oshiq bo'lmagan muddatga hamda mahkumaning yosh bolasi bo'lsa – u uch yoshga to'lgunga qadar ozodlikdan mahrum etilgan ayollarga nisbatan hukm ijrosi kechiktiriladi. Bu esa ularning "ochiqda yurishi"ga sharoit yaratib, qayta jinoyat sodir etishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, agarda Jinoyat kodeksining 69-moddasiga asosan, jazoni ijro etish muddati o'tib ketgan taqdirda, ular jazodan ozod qilinadi. Mazkur holat jazolashdan ko'zlangan maqsadga erishishga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

So'nggi o'n yillikda ayollarning kriminogen faollik yoshi (22-29 yoshdan 30-49 yoshgacha) o'sishi kuzatildi. Shu yoshdagi ayollarning fikrlashi ma'lum bir stereotipi, o'rnatilgan odatlari, qarashlari va qadriyat yo'nalishlarini ishlab chiqqan ayollar toifasidir. Bu ularning ushbu davrda ijtimoiy ishlab chiqarishdagi eng faol ishtiroki kuzatilayotgani, ijtimoiy aloqalari kengayishi, ijtimoiy harakatchanlikda maksimal darajaga yetganligi bilan bog'liq [10, 31-32-b.]. Bu yoshda ayollar ko'pincha rahbarlik lavozimlariga tayinlanadi.

Hayotiy qadriyatlar va qiziqishlar shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan shaxsni tavsiflashda ta'lim darajasi muhim ahamiyatga ega. So'nggi o'n yil ichida u biroz oshdi, garchi jinoyatchilar orasida eng katta ulush hali ham to'liq o'rta ma'lumotga ega bo'lgan shaxslarga (30 foizga yaqin) to'g'ri kelsa-da, o'rta maxsus ma'lumotli shaxslar 35 foizdan ko'proqni tashkil qiladi.

Jinoyatchi ayollarning ijtimoiy-demografik xususiyatlarining muhim ko'rsatkichi sudlanganlik yoki hibsga olingan paytdagi mashg'ulot toifasi hisoblanadi. Ushbu ma'lumotlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, bu ayollarning aksariyati muayyan kasblarga ega emas (ularning deyarli yarmi ishlamagan va o'qimagan). Yakka tartibdagi mehnat (tadbirkorlik) faoliyati bilan shug'ullanuvchi mahkuma ayollar salmog'i bosqichma-bosqich ortib bormoqda [11, 92-b.].

An'anaga ko'ra, inson uchun eng muhim qadriyat – bu oila. Kriminologik ma'noda oilaning ta'siri ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin, lekin hech qanday holatda neytral emas. Oilaviy holat, ayniqsa, oiladagi nizolarning mavjudligi va tabiati ayolning o'zi tomonidan ham, uning eng yaqinlari tomonidan ham turmush darajasining ko'rsatkichi sifatida qabul qilinadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, jinoyat sodir etilgan paytda ayollarning yarmidan ko'pi turmushga chiqqan bo'ladi. Bunday holatlarda ularga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazolar kamdan kam holatlarda beriladi.

Jinoyat sodir etishning eng keng tarqalgan motivlari: boshqalardan "yomon yashamaslik"; o'zi va yaqinlarini eng zarur narsalar bilan ta'minlash; "siz chiroyli yashashni taqiqlay olmaysiz" tamoyiliga ko'ra o'z zavqi uchun yashash; spirtli ichimliklar yoki giyohvand moddalarni sotib olish istagi.

Shu bilan birga, ayollar o'rtasida ham yollanma, ham zo'ravonlik jinoyatlarini sodir etish va jinoiy faoliyatni rag'batlantirishda ularning yaqinlari hayoti bilan bog'liq motivlar katta ahamiyatga ega.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, jinoyatchi ayolning xatti-harakati ko'pincha rag'batlantirish motivlari bilan bir qatorda, oila yoki farzandlari, yaqinlari manfaatiga qaratilgan xatti-harakatlarini oqlash motiviga asoslandi. Ayniqsa, bunday holatlar oilaviy asosda jinoyat sodir etishda, jabrlanuvchilarning qarindoshlari yoki tanishlari bo'lganda namoyon bo'ladi.

O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, mahkum ayollarning ma'lum bir qismi sudlanganga qadar fohishalik bilan shug'ullangan. Ular orasida bolali ayollar ham ko'p. Jinoyatchi ayolga xos bo'lgan yana bir jinoiy-huquqiy belgi sudlanganlikdir. Ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar umumiy sonining 70 foizdan ortig'i birinchi marta, 25 foizdan ortig'i ikkinchi marta va 5 foizga yaqini uchinchi marta va undan ortiq marta sodir etilgan. Ularning qayta-qayta sodir etayotgan jinoyatlari ko'pincha bir-biri bilan bog'liq, lekin jinoyat tarkibining turli birikmalari ham mavjud.

Ozodlikdan mahrum qilish tarzida tayinlangan jazo muddatiga kelsak, jinoyatning ijtimoiy xavfliligi va mahkumning xususiyatini ko'rsatuvchi jinoiy-huquqiy xususiyatning muhim ko'rsatkichi sifatida 1 yildan 3 yilgacha qisqartirish mavjud, va aksincha, 3 yildan ortiq jazo muddati oshirilishi kuzatilmoqda.

Shu bilan birga, ayollarga hukm chiqarish amaliyotining yana bir xususiyatini ta'kidlash lozim. Qoidaga ko'ra, ular erkaklarnikiga qaraganda yengilroq jazolarga hukm qilinadilar. Bu ma'lum darajada ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligi, shuningdek, sodir etgan jinoyatlarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq jazo ayollar uchun liberallashtirilganidan dalolat beradi.

Jinoyatchilarni kriminologik tavsiflashda axloqiy va shaxsiy xususiyatlar, deformatsiya va kriminogenlik darajasi, mavjud hayotiy vaziyatlar va ularning shaxsga ta'sir qilish darajasi katta ahamiyatga ega. Tadqiqotlar natijasida jinoyat sodir etgan

ayollarning 70 %dan ortig'ida tavba qilish, taxminan 40 %ida o'z aybini to'liq tan olish, 30 %dan ortig'ida aybini qisman tan olish, qolgan 25 %ida esa aybini tan olmaslik kuzatildi.

Mahkum ayollarning psixologik fazilatlarini o'rganish ularda ko'proq doimiy affektiv, psixo-travmatik tajribalar, yuqori impulsivlik ajralib turishini ko'rsatdi. Ular hayotiy vaziyatlarni e'tiborsiz qoldiradilar yoki yetarli darajada idrok etmaydilar va baholaydilar; o'z harakatlarining oqibatlarini yomon bashorat qiladilar, tajribani hisobga olmaydilar; ularning xatti-harakatlari har doim tartibsizdir [12, B.146]. Shuning uchun ularning noqonuniy xatti-harakatlari himoya xarakteriga ega bo'lib, o'zi yoki oilasini himoya qilishga qaratilgan.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ma'lum fiziologik jihatdan aniqlangan davrlarda ayollarda ruhiy jarayonlarning beqarorligi kuchayishi mumkin va mahkum ayollarning aksariyati aql-idrokni istisno qilmaydigan nevrotik kasalliklarga chalingan [13, 83–84-b.]. Shuning uchun mahkum ayollarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun taklifga asoslangan usullar elementlari (avtojenik tayyorgarlik, o'z-o'zini gipnoz qilish va boshqalar) bilan salbiy ruhiy holatlarni qoplash imkonini beradigan psixologik-pedagogik usullar ishlab chiqish lozim.

Ayollarni jinoyatga undaydigan asosiy sabablarni o'rganmasak, O'zbekistonda ayollar jinoyatchiligining bugungi ahvoli haqida to'liq ma'lumot olib bo'lmaydi.

Dunyodagi har bir davlat, shu jumladan, O'zbekistonning ham zamonaviy taraqqiyot tahlili jamiyatda jinoyatchilik kabi salbiy hodisaning mavjudligi, bunda ayollar jinoyati ham ma'lum o'rin egallaganidan dalolat beradi. Aytish kerakki, O'zbekistonda bu unchalik ahamiyatsiz bo'lsa-da, ayni paytda "Ayollar nima uchun jinoyat qiladi?", "Ayollarning jinoyat sodir etishiga qanday sabab va shartlar bor?" degan savollar jamiyatni tashvishga solmoqda.

Bu savollarga qisqacha javob berishga harakat qilamiz.

Birinchidan, ayollar jinoyatchiligi, umuman olganda, jinoyatchilik ijtimoiy xususiyatga ega. Ular jamiyat hayotining o'ziga xos tarixiy sharoitlari, uning yetakchi institutlarining mazmuni va yo'nalishi, asosiy qarama-qarshiliklarni hal etishning mohiyati va usullari, ijtimoiy munosabatlar tizimida ayollarning tutgan o'rni bilan bog'liq.

Barcha jinoyatlar singari uning "ayol" qismi ham ijtimoiy rivojlanish jarayonida doimiy ravishda qayta tiklanadigan muqarrar va tabiiy hodisadir. Ayollar jinoyati darajasining kamayishi yoki ortishi tashqi muhitga bog'liq, ba'zi hollarda ayollar jinoyati o'zini ko'paytirishga qodir (masalan, retsidiv jinoyatlar doirasida), lekin har doim ijtimoiy omillar yordami bilan. Bularga boshqa jinoyat turlari ham kiradi (masalan, yollanma jinoyatlar).

Ikkinchidan, ayollarning jinoyat sodir etishiga sabab bo'lgan holatlar, umuman olganda, jinoyat sabablarining bir qismidir. Batafsilroq yondashuvni ham taxmin qilish mumkin, masalan, ayollarning yollanma jinoyati barcha yollanma jinoyatlarni keltirib chiqaradigan harakat va sabablar natijasidir. Ularning zo'ravonlik jinoyati – bu harakat natijasi va barcha zo'ravonliklarni keltirib chiqaradigan sabablar va boshqalar.

Uchinchidan, sabablarni tahlil qilishning ikkita asosiy darajasini ajratib ko'rsatish mumkin: umuman ayollar jinoyatchiligi va ularning individual noqonuniy xatti-harakati. Ular chambarchas bog'liq. Umumiy tartibning holatlari shaxslarning o'ziga xos harakatlari-da namoyon bo'ladi. Jinoyat sabablari shaxsning odob-axloqi shakllanishi, ularning hayotiy vaziyatlar va konfliktlarga munosabati hamda reaksiya turlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ayollar va erkaklar jinoyatchiligi umumiy sabablarga ko'ra yuzaga keladi. Biroq bir vaqtning o'zida xatti-harakatlar darajasida harakat qilish bilan birga, har bir holatda ular

turli xil natijalarga olib keladi. Shunday qilib, ayollar kamroq jismoniy kuchga ega, bu, masalan, zo'ravonlik jinoyatlarini sodir etishda namoyon bo'ladi.

Ayollarning kasbiy mansubligi, kasbi, ishlab chiqarish faoliyati, funksiyalari, oilaviy-maishiy munosabatlar, shaxsiy hayotida bo'lgan harakatchanligi va erkinligida sodir bo'lgan o'zgarishlarni ham unutmash kerak.

To'rtinchidan, jinoyatchi ayollar va ular sodir etayotgan jinoyatlar soni ko'payishi-ning asosiy sababi yangi iqtisodiy munosabatlar – ishlab chiqarishning qisqarishi, aholining aksariyat qismining moddiy ahvoli biroz yomonlashuvi va uning tabaqlanishi bilan bog'liq, masalan: daromadlar, ro'yxatga olingan va yashirin ishsizlikning mavjudligi.

Insonlar rivojlanayotgan bozor tizimining elementiga tobora ko'proq kirib bormoqda. Ular jinoyatchilar safini to'ldirishga mahkum. Tabiiyki, bu barcha ijtimoiy notinch qatlamlar jinoyat sodir etish yo'liga kiradi, degani emas, chunki jinoiy xatti-harakatlar nafaqat insonning hayotiy sharoiti, balki bu sharoitlarning shaxs tomonidan qanday qabul qilinishi va baholanishi bilan bog'liq.

Beshinchidan, hozirgi davrda ayollarning jamiyatdagi mavqeyini tavsiflovchi turmush sharoitidir. Ijtimoiy huquqlarning yetishmasligi, umumiy psixologik beqarorlik, hayotda ma'naviy va ruhiy yo'l-yo'riqlarni yo'qotish, ma'lum bir qismining oilaviy hayotga qodir emasligi ayollar, ayniqsa, yoshlar o'rtasida jinoyatlar sodir etilishiga turtki bo'lmoqda. Yosh ayollar va qizlar har qanday holatda ham boyib ketish, ijtimoiy zinapoyaning yuksak pog'onalariga ko'tarilish uchun intiladi. Istakning o'zi maqtovga sazovor, ammo haqiqat shundaki, bu maqsadga erishishda, qoida tariqasida, muvaffaqiyatni ta'minlaydigan har qanday vositadan foydalaniladi. Ko'pincha "axloqiy pasayish" tufayli bu ko'p marta takrorlanib, odatiy holga aylanadi.

Oltinchidan, uzoq vaqt davomida jamiyat oldida shoshilinch moddiy ehtiyojlarni

qondirish asosiy vazifa edi. Albatta, ehtiyojlarning o'sishi jamiyatda tabiiy hodisa, lekin ularning rivojlanishi jamiyatning muayyan rivojlanish bosqichidagi imkoniyatlari bilan tartibga solinishi kerak. Jinoyat sabablarini aniqlashda, binobarin, oldini olish shakllarini belgilashda bu holat har doim ham hisobga olinmaydi.

Odamlar ehtiyojlarini o'zgartirish jamiyatning ularni qondirish qobiliyatidan ancha tezroq sodir bo'ladi. Mamlakatda moddiy ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlari ayollarning turli ijtimoiy guruhlari uchun ancha farq qiladi. Moddiy ehtiyojlarning o'zi esa aholining barcha guruhlari uchun taxminan bir xil, turli ijtimoiy guruhlaridagi nizolarning jiddiyligi esa har xil.

Ehtiyojlarni qondirishning kriminogen usullari istak va ehtiyojlar jamiyat imkoniyatlariga mos kelmagan hollarda yuzaga keladi [14, 10-b.].

Albatta, zamonaviy ayol jinoyatchiligining xususiyatlari bu omillar bilan cheklanmaydi. Hozirgi vaqtda kriminologlar jinoyat sodir etishga ta'sir qiluvchi 300 dan ortiq turli sabab va shartlarni aniqladilar. Biz uning ahamiyatsiz qismi, lekin ayollar jinoyatining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni rejalashtirishga yordam beradigan asosiy qismini ko'rib chiqdik.

Xulosalar

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda, shuni ta'kidlash kerakki, jinoyatchi ayol o'ziga xos xususiyatlarni saqlab qoladi. Bu ijtimoiy-demografik, jinoiy-huquqiy, axloqiy va psixologik xususiyatlar bilan tasdiqlanadi. Uning zamonaviy kriminologik portreti quyidagicha: u turmushga chiqqan, 30–49 yoshga to'lgan, aniq kasbga ega bo'lmagan, to'liq o'rta yoki o'rta maxsus ma'lumotga ega. U o'z hayoti yoki yaqinlarining hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lgan motivlar uchun, qoida tariqasida, qasddan mulkka qarshi bitta jinoyat sodir etgan bo'lsa, 3 yildan 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilinishi mumkinligi belgilangan.

REFERENCES

1. Abdurasulova K.R. Ayollar jinoyatchiligining jinoyat huquqiy va kriminologik muammolari [Criminal legal and criminological problems of women's crime]. Tashkent, TSUL Publ., 2005.
2. Xodjayeva S.A. Fuqarolik jamiyati va xotin-qizlar huquqlari. Qonun himoyasida [Civil society and women's rights. Under the protection of the law]. Tashkent, 2002, no. 4, pp. 20-21.
3. Pulatova A. Nekotoryye aspekty prestupnosti, sovershayemye zhenshhinami [Some aspects of crime committed by women]. *The role of moral qualities in the formation of a healthy lifestyle: Proceedings of the scientific-practical conference*, 2008, pp. 125–127.
4. Sharipova G. Nekotoryye aspekti kriminologicheskoy kharakteristiki zhenskoy prestupnosti [Some aspects of the criminological characteristics of female crime]. *TSIL Bulletin*, Tashkent, 2008, no. 4, pp. 70–74.
5. Pulatov Yu.S. Preduprezhdeniye terroristicheskikh aktov s ispolzovaniyem psikhologicheskogo portreta terroristki-smertnitsy [Prevention of terrorist acts using the psychological portrait of a female suicide bomber]. *Proceedings of the Academy*, Dushanbe, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Tajikistan, 2015, no. 3 (27), pp. 150–155.
6. Arenova L.K., Turgayev B. Istoriya formirovaniya psikhologicheskogo profilirovaniya lichnosti prestupnika [The history of the formation of psychological profiling of the offender's personality]. 2016. pp. 551–554.
7. Zhenshina – semya – obshestvo: sovremennaya sotsialno-ekonomicheskaya situatsiya [Woman-family-society: The current socio-economic situation]. Saratov. 1992, p. 69.
8. Pulatov Yu.S. O znachenii izucheniya lichnosti uchastnika ugolovnogo protsessa v sovremennykh usloviyakh [On the importance of studying the personality of a participant in criminal proceedings in modern conditions]. *Proceedings of scientific-practical conference*. Tashkent, TSUL Publ., 2010, p. 30.
9. Kudryavsev V.N. Prichinnost v kriminologii [Causality in criminology]. Moscow, 1968, p. 57.
10. Anvarova D. Xotin-qizlar huquqlari [Women's rights]. *Bulletin of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan*, Tashkent, 2016, no. 4, pp. 31–32.
11. Alimova G.A. Gendernyye aspekty v razvitii predprinimatelskoy deyatelnosti [Gender aspects of entrepreneurial development]. *O'zbekiston Respublikasi IIV Toshkent oliy harbiy-texnik bilim yurti Axborotnomasi – Bulletin of the Tashkent Higher Military-Technical Educational Institution of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan*, Tashkent, 2016, no. 1, pp. 88–92.
12. Dmitriyeva N.V., Perevozkina Yu.M., Kachkina L.S. Osobennosti deviantnogo povedeniya osuzhdennykh, sklonnykh k narusheniyu trebovaniy rezhima sodержaniya v ispravitelnykh uchrezhdeniyakh [Features of deviant behavior of convicts prone to violation of the requirements of the regime of detention in correctional institutions]. Moscow, 2014, no. 2 (18), pp. 146–156.
13. Ryzhkov V.D. Prakticheskaya psikhologiya zhenskikh krizisov [Practical psychology of female crises]. St. Petersburg, 1998, pp. 83–84.
14. Golodnyuk M.N. Problemy sotsialnogo i biologicheskogo v prestupnosti zhenshhin [Social and biological problems in women's crime]. *Questions crime control*, Moscow, Legal literature, 1982, pp. 20–24.
15. The same problems are considered, for example, in Japan. *International Comparisons of Criminal Justice Statistics. Home Office Statistical Bulletin*, 2012, iss. 6/01/-May, p. 10.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-YIL 2-SON

VOLUME 3 / ISSUE 2 / 2023

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.1.

BOSH MUHARRIR:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y. f. d., dotsent

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ikrom Ergashev

Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Mas'ul muharrir: N. Ramazonov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, Y. Mahmudov, Y. Yarmolik,
F. Muhammadiyeva, Sh. Yusupova

Musahhih: M. Patillayeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Veb-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 29.04.2023-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 21,4 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma raqami: 19.

TDYU tipografiyasida chop etildi.